



RUS PSIXOLOGLARI TOMONIDAN BOLALAR PSIXALOGIYASI MUAMMOLARINING O'RGANILISHI

*Termiz davlat universiteti
psixalogiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ulasheva Karomat*

Anotatsiya : *Ushbu maqolada rus psixologlari tomonidan bolalar psixalogiyasi sohasida olib borilgan tatqiqotlar sohasida so'z yuritiladi. L.G. Vygotskiy, A.N.Leontov, D.B.Elkonin kabi olimlarning qarashlari va ularning ilmiy g'oyalari va hozirgi psixalogiyada tutgan o'rni qisqacha tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Bolalar psixalogiyasi, rus psixologlari, rivojlanish, Vygotskiy, Leontov, Elkonin , shaxs, ta'lim, psixik jarayonlar.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования проведенные российскими психологами в области детской психологии. Работы Л. С Выготского Ф Н Леонтов и Д Б Елконина имеют большое значение для понимания процесса формирования личности ребёнка,

Ключевые слова: детская психология. российские психологи. развитие. Выготский. Леонтьев. Элконин. личность. образование. психические процессы.

Abstract: This article discusses the research conducted by Russian psychologists in the field of child psychology. The views and scientific ideas of scholars such as Leontov , Vygotskiy and Elkonin as well as their role in modern psychology, are briefly analyzed.

Keywords: Child psychology, Russian psychologists, development, Vygotsky, Leontiev, Elkonin, personality, education, mental processes.



Bugungi kunda bolalar psixologiyasini chuqur o'rganish ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rus psixologlari bu sohada katta ilmiy meros qoldirgan bo'lib, ular bolalarning ruhiy rivojlanishi, tafakkuri, nutqi va hissiy holatini o'rganishda muhim tadqiqotlar olib borganlar. Ayniqsa L.S. Leontov, D.B. Elkonin kabi olimlarning nazariyalari bola shaxsining shakllanish jarayonini chuqur anglashga yordam bergan. Ushbu maqolada rus psixologlarining bolalar psixologiyasi sohasidagi asosiy qarashlari, ularning ilmiy g'oyalariva hozirgi psixologiyada tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

L.S. Vigitskiy eng mashhur rus psixologi va faylasuflardan biridir. Olim o'z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko'plab g'oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oiddir. L/S. Vigotskiyning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta'limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Psixolog ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy taraqqitoti masalasi turadi. Vigotskiyning izlanishlari oliy psixik funksiyalar ya'ni ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlarni bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo'lmasligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko'rsatdi.

Aynan L.G. Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Vigotskiyning fikricha, muhit oliy psixik funksiyalarning taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotdagi roli yosh o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq-atvorning tug'ma shakllari mavjud bo'lmaydi. Odamning psixik taraqqiyoti faoliyatning tarixan shakllangan turlari va usullarini o'zlashtirish orqali kechadi. Miyaning morfofiziologik xususiyatlari va muloqot bola taraqqiyoti uchun sharoit sifatida xizmat qiladi. Taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ta'limdir. L.S. Oboxovanning fikricha, L.S. Vigotskiyning



katta xizmati shundaki, u bolalar psixologiyasi faniga tarixiylik tamoyilini kiritgan. Ushbu tamoyilga ko'ra, psixil hodisalar harakatdagi narsa sifatida o'rganilishi lozim.

Madaniy-tarixiy kontsepsiya – vigotskiy tomonidan Xxasrning 20-30 yillarida ishlab chiqilgan inson psixil taraqqiyoti haqidagi nazariyadir. Kontsepsiyaning asosiy mazmuni quyidagilardan tashkil topgan; mehnat qurollarini ishlatishi tufayli odam tabiatdan ajralib chiqqan. Tabiatga ishlov berish uchun odam ushbu qurollardan foydalansa, o'z psixikasiga ta'sir ko'rsatish uchun u psixologik qurollarni qo'llaydi. Madaniy - tarixiy kontsepsiyaning muhim g'oyalardan biri rivojlanishning eng yaqin zonasi haqidagi nazariy qarashdan iborat. Vigotskiy o'z kontsepsiyasida bola psixik taraqqiyotining to'rt asosiy qonunini ta'riflab berdi.

1. Bola taraqqiyot ritmlarining farqlanish qonuni. Bu qonunga ko'ra bolaning rivojlanishi o'z suratlariga ega, bu su'ratlar vaqt ritmiga to'g'ri kelmaydi.

2. Bola taraqqiyotidagi metamorfoza qonuni. Bu qonunga ko'ra, rivojlanish sifat o'zgarishlarning zanjiridan iborat. Bola kamroq biladigan, qo'lidan kamroq narsa keladigan odam emas, balki psixikasi sifat jihatdan kattalar psixikasidan farqlanuvchi mavjudotdir.

3. Bola taraqqiyotining notekislik qonuni. Bu qonunga ko'ra, bola psixikasining har bir bir tomoni o'z taraqqiyotining optimal davriga ega bo'ladi. har xil psixik funksiyalar notekis, noproportsional rivojlanadi.

4. Oliy psixik funksiyalarning shakllanish qonuni. Bu qonunga ko'ra, har qanday oliy psixik funksiya avval bolaning atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi, keyinchalik u individual sohaga ko'chadi. Shuningdek Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola taraqqiyotida barqaror davrlar inqirozli davrlar bilan almashadi. Inqirozlar ikki yosh davri tutashgan joyda, bola psixikasi va xulq – atvordagi eski xususiyatlarning yo'qolib, yangilari shakllanishi ro'y beradi.

Demak, Vigotskiy psixologiyada madaniy – tarixiy yondashuvga asos solgan. Mazkur yondashuv bolalar psixologiyadagi nazariy va amaliy muammolarni



hal qilishda ham katta ahamiyatga egadir. Leontyevning faoliyat nazariyasi; Leontyev - mashhur rus psixologi, faoliyat nazariyasining asoschilaridan biri. Faoliyat nazariyasi ong va faoliyat birligi tamoyiliga asoslangan. Ushbu nazariyaga ko'ra, faoliyat sub'yektning predmetli olam bilan bo'lgan ta'sirlanish jarayoni bo'lib, bu jarayon unga o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun imkoniyat beradi.

Faoliyat - bu faol, maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Predmetlilik faoliyat bilan bog'liq Ehtiyoj - individdan tashqarida bo'lgan, ammo individ normal hayot kechirishi, shaxsning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan narsalarga nisbatan zaruratni his etish holati. motiv - ehtiyojning namoyon bo'lish shakli, insonni faoliyatga undaydigan sabab, ya'ni faoliyatning nima uchun amalga oshirilayotganligidadir. U yoki bu motiv insonni muayyan maqsad sari undaydi. Maqsad – faoliyatdan kutilayotgan natija. Faoliyat quyidagi darajalarga ega bo'ladi. Maqsad- faoliyatdan kutilayotgan natija. Faoliyat quyidagi darajalarga ega bo'ladi;

1. Maxsus faoliyat turlari darajasi.
2. Harakatlar darajasi.
3. Operatsiyalar darajasi.
4. Psixafiziologik funksiyalar darajasi.

Faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan faoliyat inson ongi shakllanishining sharti va omili, ong faolligining shaklidir. Leontov o'z izlanishlarida faoliyatning bola taraqqiyotiga ta'siri muammosini hsam chuqur o'rgangan. Tatqiqot natijasida faoliyat nazariyasi doirasida “yetakchi faoliyat” tushunchasi shakllanadi. Yetakchi faoliyat deganda tadqiqotning muayyan davrida bola shaxsidagi asosiy psixologik o'zgarishlarga sabab bo'luvchi faoliyat tushuniladi. Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat o'yin faoliyatidir. Bir yosh davridan ikkinchisiga o'tishda yetakchi faoliyat turi o'zgaradi, bunda bola faoliyatida maqsadning motivga



aylanishi, Leontyev ta’biri bilan aytganda “motivning maqsadga ko’chishi “ kuzatiladi. Yangi faoliyat turi yangi motivlar paydo bo’lgach vujudga keladi.

Leontyev fikricha, shaxs ikki marta tug’iladi’ shaxsning birinchi tug’ilishi maktabgacha yosh davriga to’g’ri keladi. Bu hodisa insonning o’z impulsiv xatti-harakatlarini ijtimoiy meyorlarga bo’ysundirishga ilk bora urinishi, motivlar o’rtasida ierarxik munosabatlarning tarkib topa boshlashi bilan bog’liq bo’ladi. Shaxsning ikkinchi tug’ilishi o’smirlilik davrida yuz beradi. Bu hodisa insonning o’z motivlari va intilishlarini anglashi va ularni bo’ysundirishi bilan bog’liqdir.

Shunday qilib A.N. Leontyevning iliy qarashlari jahon psixologiya fani taraqqiyotida ulkan hissa bo’lib qo’shildi, ular bolalar psixologiyasi sohasida ko’plab nazariy va amaliy muammolarni hal etish uchun ham zamin bo’lib xizmat qilib kelmoqda. Elkoninning qarashlari; bolalar psixologiyasi va pedagogik psixologiyaga katta hissa qo’shgan olimdir. U ayniqsa bolaning psixik rivojlanish bosqichlari, o’yin faoliyatining roli, va ta’lim jarayonining psixologik asoslari haqida chuqur tadqiqotlar olib borgan.

1. Bolalik davrlarini bosqicma – bosqich rivojlanish nazariyasi

Elkonin Vigotskiyning madaniy- tarixiy nazariyasiga asoslanib , bolaning psixik rivojlanishini ijtimoiy faoliyat asosida tahlil qildi. U bolalikni 6 asosiy bosqichga ajratdi.

1. Go’daklik (0-1 yosh)- kattalar bilan emotsional muloqot asosiy faoliyat.
2. Ilk bolalik (1-3 yosh) predmetli harakatlar faoliyati .
3. Maktabgacha yosh (3-7) – syujetli – rolli o’yin yetakchi faoliyat .
4. Kichuk maktab yoshi (7-11 yosh) – o’quv faoliyati asosiy o’rinda



5. O'smirlik (11-15 yosh) – muloqot va ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Yoshlik (15-17) - kasbiy yo'nalish va o'zini anglash jarayoni kuchayadi

Bu nazariya psixologik diagnostika va ta'lim metodikalarini ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

2. O'yin faoliyatining rivojlantiruvchi roli

Elkonin o'yin faoliyatini bolalar psixikasini shakllantiruvchi eng muhim bosqich sifatida ko'rsatdi. Unga ko'ra

O'yin – bu bola ijtimoiy rollarni o'zlashtiradigan model;

O'yin jarayonida bola ramziy fikrlash, tasavvur, va ijtimoiy me'yorlarni tushunishni o'rganadi;

Shu bois, o'yin – bu maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi

Shunday qilib Vigotskiy Leontov va Elkoninning ilmiy merosi bolalar psixologiyasi taraqqiyotida o'ziga xos maktabni yaratdi. vigotskiy bolalar rivojlanishini ijtimoiy- madaniy omillar bilan bog'lab psixik taraqqiyotning asosini muloqot va ijtimoiy tajribada deb hisoblagan. Leontyev esa g'oyalarni davom ettirib, faoliyat nazariyasini ishlab chiqdi – ya'ni inson psixikasini uning faoliyati orqali tushuntirdi. Elkonin esa Vigotskiy va leontov qarashlariga tayangan holda, bolalik davrlarini yetakchi faoliyat asosida bosqichma –bosqich tahlil qilib, o'yin, o'qish, va muloqot jarayonlarining bolaning psixik rivojlanishidagi rolini chuqur yoritdi. Uning tadqiqotlari asosida rivojlantiruvchi ta;lim nazariyasi shakllandi. bu esa ta'lim jarayonini bola tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirishga imkon berdi.



Xulosa

Shunday qilib, Vygotskiy, Leontyev va Elkoninlarning g'oyalari o'zaro bog'liq holda bolalar psixologiyasining nazariy asoslarini yaratdi. Ularning ishlari bugungi kunda ham ta'lim va tarbiya jarayonida bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng muhim ilmiy manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Nishonova, G. Alimova ' Bolalar psixologiyasi va uni O'qitish metodikasi'Toshkent 2006.
2. Vygotskiy.L.S.'Fikr va nutq' – Moskva Pedagogika, 1999.
3. Leontyev .A.N. 'Faoliyat, ong va shaxs' Moskva
4. Elkonin .D.B.'Maktab o'quvchisining psixologik rivojlanishi 'Moskva Akademiya 1989.
5. Qodirova F.R. 'Rivojlantiruvchi ta'lim asoslari'.- Toshkent ; Fan , 2020.